

Slovakiyada 3 oylik o'qish

ERASMUS+ ICM (KA171) DASTURI DOIRASIDA SLOVAKIYA QISHLOQ XO'JALIGI UNIVERSITETIDA 3 OYLIK TAHSIL OLISH UCHUN TANLOV E'LON QILINADI

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari” Milliy tadqiqot universiteti talabalari uchun Erasmus+ International Credit Mobility (KA171, 2025-yilgi chaqiriq) dasturi doirasida Slovakiya Qishloq xo'jaligi universitetida (Slovak University of Agriculture in Nitra, Slovakia) 3 oylik akademik mobillik dasturida ishtirok etish uchun tanlov e'lon qilinadi.

Mazkur almashinuv dasturi TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti hamda Slovak University of Agriculture in Nitra o'rtasida imzolangan inter-institutsional kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Dastur haqida qisqacha ma'lumot:

- Qabul kvotasi: **2 nafar talaba**
- Mobillik davomiyligi: **3 oy**
- Dastur turi: **akademik tahsil olish**
- Qabul qiluvchi OTM: **Slovak University of Agriculture in Nitra (Slovakiya)**
- Amalga oshirish davri: **2026/2027 o'quv yili** doirasida

Moliyaviy ta'minot:

Tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan ishtirokchilarga quyidagi Erasmus+ grant mablag'lari ajratiladi:

- **1188 yevro / oy**
- **211 yevro** bir martalik yo'l xarajati uchun

Mazkur mablag'lar **Nitra shahriga yetib borgandan so'ng** va Slovak University of Agriculture xalqaro aloqalar ofisida Grant Agreement imzolanganach to'lanadi.

Kimlar hujjat topshirishi mumkin:

- TIAME Milliy tadqiqot universitetida tahsil olayotgan talabalar
- **PhD (doktorantura) bosqichi talabalari ham** ushbu tanlovda ishtirok etish huquqiga ega

Saralash mezonlari:

Nomzodlar universitet tomonidan ochiq va shaffof tanlov asosida quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

- o'qishdagi natijalari
- xorijiy til bilish darajasi
- mobillikda ishtirok etish motivatsiyasi

Nomzodlarni taqdim etish muddati:

Hamkor universitetga nomzodlarni rasmiy taqdim etishning oxirgi muddati:

- **2026-yil 31-may** — 2026/2027 o'quv yili uchun
- **2026-yil 31-oktabr** — 2026/2027 o'quv yilining bahorgi semestri uchun
- **2027-yil 31-may** — 2027/2028 o'quv yili uchun

Shu munosabat bilan, tanlovda ishtirok etishni istagan talabgorlar universitetning ichki saralash jarayonida qatnashishlari lozim.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti
Xalqaro hamkorlik boshqarmasi